



YOSHLAR ONGIGA MILLIY G‘OYANI SINGDIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich

*Ilmiy rahbar: Namangan Davlat universiteti Fuqarolik jamiyati va
huquq ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Mahmudova Durdonabonu Sobitjon qizi

*Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet Milliy g‘oya, ma’naviyat
asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi MIG ‘-AU-21 guruh talabasi*

Annotatsiya: Har qanday millatning rivojlanishida milliy g‘oya beqiyos va asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababdan, “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” qabilidagi dasturiy g‘oya asosida yoshlarning ongi, qalbi hamda ichki dunyosiga milliy g‘oyani zamon holati hamda talablariga mos ravishda axborot texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar asosida singdirish, ularni yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik va axloqiy fazilatlarni yanada shakllantirish - g‘oyat sharaflı va eng birinchi bo‘lgan vazifaga aylanmog‘i kerak. Shundagina biz istiqbolda ma’naviy barkamol ,yetuk insonni, sog'lom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Xususan, “Har qanday davlatning yoshlari o‘z oldiga qo‘yayotgan maqsadiga qarab, shu davlatning kelajagini bilish va belgilash mumkin”¹

Kalit so‘zlar: Milliy g‘oya, ma’naviyat, milliy qadriyat, an’ana, axborot texnologiyalari, globallashuv, mafkura, texnologiya, targ‘ibot, madaniyat, ma‘rifat, innovatsiya, immunitet, internet, virtual muloqot, Nimofobiya, Igromaniya.

Аннотация: Национальная идея имеет ни с чем не сравнимое и фундаментальное значение в развитии любой нации. По этой причине на основе программной идеи «От национального возрождения к национальному подъему» внедрять национальную идею в умы, сердца и внутренний мир молодежи на основе информационных технологий и инновационных технологий в соответствии с современной ситуации и требований, воспитание их в духе лояльности к стране, дальнейшее формирование инициативы, самоотверженности и моральных качеств должно стать чрезвычайно почетной и первоочередной задачей. Только тогда мы сможем воспитать духовно совершенного, зрелого человека, здоровое поколение в будущем. В частности,

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/internetning-yosh-avlodga-salbiy-ta-siri-va-oqibatlari>



«Будущее страны может быть известно и определено в зависимости от целей, которые ставит перед собой молодежь любой страны».

Ключевые слова: Национальная идея, духовность, национальная ценность, традиция, информационные технологии, глобализация, идеология, технологии, пропаганда, культура, просвещение, инновации, иммунитет, Интернет, виртуальное общение, нимофобия, игромания.

Abstract: The national idea is of incomparable and fundamental importance in the development of any nation. For this reason, on the basis of the programmatic idea of "From national revival to national rise", inculcate the national idea into the minds, hearts and inner world of young people on the basis of information technologies and innovative technologies in accordance with the current situation and requirements, educate them in the spirit of loyalty to the country, further formation of initiative, selflessness and moral qualities should become an extremely honorable and first task. Only then will we be able to educate a spiritually perfect, mature person, a healthy generation in the future. In particular, "The future of the country can be known and defined depending on the goals set by the youth of any country."

Keywords: National idea, spirituality, national value, tradition, information technology, globalization, ideology, technology, propaganda, culture, enlightenment, innovation, immunity, Internet, virtual communication, Nymophobia , Igromania.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi “ekanligi to‘g‘risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur qabilidagi so‘zлari bizni sergaklikka da’vat etadi. Bunda aytilyaptiki, biz avvalo jamiyatimiz uchun asosiy kerak bo‘lgan muammoni aniqlab olishimiz kerak bo‘ladi. Muhtaram prezidentimiz ma’naviyat hamda ma’rifat ishini vijdon ishiga aylantirmog‘imiz darkor ekanligini ta’kidlab o’tmoqda. Va buni yoshlar hamda fuqarolarning ongiga singdirishimiz darkor ekanligi asosiy vazifalarimizdan biridir. Hozirgi globallashuv sharoitida yashayotgan ekanmiz, tan olishimiz kerakki, Internet va ommaviy axborot vositalari bizning ikkinchi oilamiz, yaqin do‘stimiz va hatto o‘zimizga aylanib borayotgani isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Har kuni ertalab 80% yoshlar, ming afsuski, internet bilan tongni kutib olishadi, har joyda u biz bilan. Bu narsa insonni yana ham o‘ylashga undaydi va bu qattiq va o‘ta katta signal, nahot, yaqin kelajakda insonlarni qo‘yin-ki bizni va sizni ham internet boshqarsa? Vaholanki, 1969 yilda AQSH da Mudofaa vazirligi hamda ilmiy



tashkilotlarning kompyuter markazlarini birlashtirgan ARPAnet kompyuter tarmog‘i yaratilgan. Va ushbu tarmoq ana shu paytda tor maqsadga mo’ljallangan bo‘lib, asosan yadro hujumlari paytida qanday aloqa qilishni o’rganish hamda tadqiqotchilarga ma’lumot almashish uchun yordam berish kerak edi. Vaqtlar o’tib, ushbu tarmoq o’sishi bilan yana ko‘plab boshqa tarmoqlar yaratildi va rivojlandi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo yoshlari, shu jumladan mamlakatimizda o’sib, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50% foizi virtual muloqotga sarflanmoqda. Qisqa qilib aytganda, juda ham ko‘pchilik yoshlar o‘z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaydilar. Ijtimoiy tarmoqlar to‘g‘risidagi ilk bora o‘z tasavvurlarini bayon qilgan olimlar R.Solomonoff va A.Rapoportlar o‘tgan asr o‘rtalarida muloqotning virtual ko‘rinishi borasida o‘z fikrlarini bayon qilishgan. Keyinchalik, Vengriyalik mutaxassislar P.Erdos va A.Renilar ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish hamda shakllantirish borasidagi tasavvurlarini aytib o‘tishgan. Va nihoyat, Ijtimoiy tarmoq atamasini alohida tushuncha sifatida 1954 yil Manchester maktabi namoyondalaridan biri bo‘lgan J.Barns ilmiy manbalarga kiritgan. Internet tarmog‘ida insonlar o‘rtasidagi muloqotning avj olishi, va juda tez suratlarda rivojlanib, ommalashib ketishini olimlar ijtimoiy tarmoqlarning tezkor faoliyatiga bog‘lashadi. Yuqorida fikrlar asnosida, Chingiz Aytmamatov shunday yozadi: “Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo‘ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko‘p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojiadir”²

Biz bu asarni o‘qib ko‘rganmiz, “Junjanglar” nomi ostidagi qabilalar yaqin qishloqlardagi yosh yigitlarni o‘g‘irlab, uylaridan olib ketishadi hamda ularga tuyaning terisidan qalpoq kiydirib, oftob ostiga, qo‘l va oyoqlari bog‘langan holatda kunlab hatto haftalab och-nahor tashlab qo‘yishadi. O‘sayotgan soch tolalari yuqoriga harakatlana olmay, insonning miyyasiga qarab o‘sса boshlaydi. Mislsiz og‘riq insonni aqldan ozdiradi va inson o‘tmishi tugul hatto o‘zining kim ekanligini ham batamom unutadi. Bizni ham axborot dunyosidagi mislsiz kenglikka ega bo‘lgan axborotlar, xabarlar, yangiliklar o‘z oilamiz bag‘ridan, do‘stlar davrasidan, ilm dunyosidan va hattoki o‘zimizdan o‘zimizni o‘g‘irlab olmoqda. Yolg‘izlikka yuz tutishimiz bilan o‘z ta’sirini bizga o‘tkazmoqda. Insonni qul va manqurtga aylantirish uchun Sarhadsiz va chek-chevara bilmaydigan internet dunyosiga kirgan yoshlar vaqt, umr g‘animat ekanini doimo yodda saqlamog‘i lozim. Zeroki, bu global

² Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: "Movaraunnahr", 2016. -B.



tarmoq bepoyon va hadsiz hududlarga ega bo‘lib, unda inson hatto o‘zi anglamagan holatda soatlab, kunlarini samarasiz va behuda o‘tkazib yuborish bilan bir qatorda, yoshlar o‘jar, asabiy, sabrsiz, qaysar va keksalarning aytganini nazarga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarni inkor etadi. “Hattoki yangi kasallik Nimofobiya - internetsiz qolishdan qo‘rqish kasalligi ham paydo bo‘ldi. Igromaniya” - bu kompyuterdan o‘rin olgan turli xil o‘yinlarga mukkasidan ketishdir. Milliy g‘oyaning insonga ta’sir qilishi va uning tafakkur tarzini o‘zgartirishi, komil insonni tarbiyalash vazifalariga erishish jarayonida inson ongi-etakchi masala hisoblanadi.³ Ozgina to‘xtab har bir inson o‘z-o‘ziga savol bermog‘i lozim. Biz qayerga qarab ketyapmiz bizdan olimlar, kashfiyotchilar, mutafakkirlar, dunyoni o‘zgartiradigan buyuk insonlar chiqishi huddiki o‘tmishdagi chiroyli gaplarga aylanayotgandek go‘yo, aytishadi-ku har 1000 yilda dunyoni o‘zgartiradigan va jaholatga,adolatsizlikka qarshi chiqadigan bir inson dunyoga keladi deb. Biroq hozir, yillar o‘tgan sayin internet tezligi 1G, 2G, 3G,4G va hokazolarni ko‘payishini, qanday internet tarmoqlari, ommaviy axborot vositalarida qanday yangiliklar paydo bo‘lishini tomosha qilib umr o‘tkazishdan boshqaga yaramaydigan zombi va manqurtlar jamiyat shakllanib borayotganini sezmayotgandaymiz. Ammo bu dunyoda yechib bo‘lmaydigan muammo,hal etib bo‘lmaydigan masalaning o‘zi yo‘q. Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlaming milliy g‘oya, mafkura, milliy ruh va ma’naviy qadriyat, an’analarga munosabati hamda bu tushunchalarning yoshlarning butun kunlik hayotiga hamda ichki dunyosiga qanchalik ta’sir etayotganligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Millat yoshlari qanchalik milliy g‘oya bilan qurollangan va uni tom ma’noda chuqr anglab olgan bo‘lsa har qanday jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Ammo bu dunyoda yechib bo‘lmaydigan muammo, hal etib bo‘lmaydigan masalaning o‘zi yo‘q. Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlaming milliy g‘oya, mafkura, milliy ruh va ma’naviy qadriyat, an’analarga munosabati hamda bu tushunchalarning yoshlarning butun kunlik hayotiga hamda ichki dunyosiga qanchalik ta’sir etayotganligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Millat yoshlari qanchalik milliy g‘oya bilan qurollangan va uni tom ma’noda chuqr anglab olgan bo‘lsa har qanday jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. “Milliy g‘oya-millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini o‘zida ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shaklidir.⁴ Endi gap milliy g‘oyani har bir O‘zbekistonlikning niyatiga va

³ B.To‘ychiev va boshq(2020)Milliy g‘oya;O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O‘quv qo’llanma, ilm-ziyo-zakovot.
- B 23

⁴ Ergashev va bosh(2016),Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalar.



harakatiga aylantirishda. Albatta, yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yo‘l ochadi. Ommaviy axborot maydonini nuql negativ kontent egallab olmasligi uchun milliy g‘oyaning targ‘ibotini innovatsion texnologiyalar orqali yangicha mazmunda to‘ldirish masalasiga alohida e’tibor qaratmog‘imiz zarur. Mana shundagina biz istiqbolda ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Biz bilamizki, ilon zahridan betob bo‘lgan insonga faqatgina ana o‘scha zarar bergen ilonning zahridan dori darkor bo‘ladi. Bu so‘zlearning tub mohiyatida esa, Ommaviy axborot vositalaridan yoshlar ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish uchun foydalanmoq zarurati yotadi.

“Sayyoramiz ertangi kuni, farovonligi, farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz-yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir”. O‘zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMTning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan. Milliy g‘oyani targ‘ib qilishda ishtirok etuvchi barcha bo‘g‘in va ayrim pog‘onalarda:

- uzluksizlik;
- bosqichma-bosqichlik;
- faollik;
- mafkurani e’tiqodga aylantirish;
- ish bilan so‘z birligi;
- shaxsiy ibrat;
- hayotiylik (yutuqlar bilan birga kamchiliklarni ham ko‘rsatish);

Yuqoridaq tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.⁵

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham bu borada quydagi fikrlarni bildiradi, “Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Shu maqsadda hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir-deb ta’kidlaydilar.⁶ Biz nafaqat hozirgi yoshlar, balki, butun O‘zbekiston xalqining ong-u tafakkuriga qarashlar, fikrlar, g‘oyalar, mafkuralar

⁵ A.Azizxo‘jayev. Milliy istiqlol g‘oyasi va targ‘ibot texnologiyasi. "Jamiyat va boshqaruvin", 2000, 3-son, B-20.

⁶ Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini biigalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016.B-14.



degan tushunchalarga nisbatan qarashlarimizni shakllantirmog‘imiz darkor. Biz quyidagilarni amalda qo‘llash orqaligina bunga erishishimiz mumkin:

Demak, oila, ta’lim tashkilotlari hamda mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;

Aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, G‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

Madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlikmatbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish zarur va buning uchun quyidagi texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Jumladan, katta axborot zaxirasi bilan shug‘ullanish uchun bilimlarning aniq tizimini shakllantirish hamda bilimlarga tayanishga yo‘naltirilgan axborot-rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish madaniyatini paydo etish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayoniga keng qo‘llashda axborot texnologiya, xususan kompyuter texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan yangi axborot texnologiyalarini o‘qitish metodlari hamda pedagogik texnologiyalarning ta’lim-tarbiyaviy yoki ularning pedagogik, didaktik hamda potensial imkoniyatlarini to‘liq ochish hamda ulardan o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uchun, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish bulardan foydalanishda qulaylik va unumдорлик yaratadi. Axborot texnologiyalari pedagogik texnologiyalarning ta’sir kuchini oshirib, ularni qo‘llashdan kutilgan natijaga erishish uchun sharoit vujudga keltiradi. Pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga qo‘llash asta-sekin avtoritar o‘qitish metodlaridan insonparvarlik pedagogikasiga yoki shaxs manfaati va kamolotiga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimiga o‘tish imkoniyatini beradi. O‘zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o‘tkazilishini ta’minlash;
- milliy g‘oya targ‘ibotining sifatini muntazam oshirib borish;
- davr talablaridan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo‘llarini izlash;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;



- mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.⁷

Albatta, axborot texnologiyalarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda qatorda salbiy tomonlari ham bo‘lishi mumkin. Bunday jihatlarni oldini olmoq uchun esa shaxsda huquqiy madaniyatni shakllantirgan holatda axborot texnologiyalarining taqiq etilgan saytlariga har qanday paytda va holatda kirmsaslik, yomon niyatlar uchun foydalanmaslik ko‘nikmalarini hosil qilmoqlik zarurdir. Ushbu holatlarni amalga oshirmoq uchun yurtimizda bir qancha qonun hamda qarorlar ham qabul qilingan. Shulardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni keng jamoatchilikning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi yuksalishida amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, “huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan”⁸

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy g‘oya xalqimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Endi gap milliy g‘oyani har bir O‘zbekistonlikning niyatiga va harakatiga aylantirishda.

Prezident Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”.⁹

Har bir narsaning ziddi zahari bo‘lganini inobatga olgan holda, jamiyatimiz yoshlarning ong-u tafakkuriga milliy istiqlol g‘oyasini hozirgi zamon talablaridan

⁷ I.Ergashev, N.Berdaliev, M.Davletova, G’.Mahammadjanov O.Bo’taylorov, "Milliy g’oya targ’iboti texnologiyalari O’quv qo’llanma" Toshkent - 2008. B-19

⁸ 2019- yil 9- yanvardagi PF-5618-soni "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida"gi Prezident farmoni, Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019-y., 06/19/5618/2452-son

⁹ Mirziyoev.Sh.M .Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O‘zbekiston. 2017. - 326 b.



kelib chiqqan holatda axborot texnologiyalari bilan bog‘liqlikda singdirish bu eng samarali yo‘llardan biri bo‘lmog‘i mumkin. Globallashuv jarayonida axborot maydonini nuqlu negativ kontentlar egallab olmasligi uchun ham milliy g‘oyaning targ‘ibotini innovatsion texnologiyalar orqali shular qatorida huquqiy madaniyat hamda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishning yo‘l-yo‘riqlarini fuqarolar ong-u shuuriga singdirish, yangicha mazmunda to‘ldirish masalasiga alohida e’tibor qaratmog‘imiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2019- yil 9- yanvardagi PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019-y., 06/19/5618/2452-ton
2. Mirziyoev.Sh.M. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O‘zbekiston. 2017. -326 b.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016.B-14.
4. B.To‘ychiev va boshqalar(2020)Milliy g‘oya; O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O‘quv qo‘llanma, Ilm-ziyozakovot. - B 23
5. A.Azizzxo‘jayev. Milliy istiqlol g‘oyasi va targ‘ibot texnologiyasi. “Jamiyat va boshqaruv”, 2000, 3-ton, B-20.
6. I.Ergashev, N.Berdaliev, M.Davletova, G‘.Mahammadjanov O.Bo‘tayorov, “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari O‘quv qo‘llanma” Toshkent - 2008. B-19
7. Ergashev va boshqalar (2016),, “Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalari”
8. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: “Movaraunnahr”, 2016. -B.5.
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/internetning-yosh-avlodga-salbiy-ta-siri-va-oqibatlari>